

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar– iyul holatiga**

## **RAQAMLAR:**


- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **23,8 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0.1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **24,0 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul oyida Respublikada 33,9 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning 24,1 mingta (8,4 %) ga nisbatan o'sgan hamda ularning umumiy soni 309,6 mingtani tashkil etgan.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,9 % ga kamaygan hamda ularning soni 4,0 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,2 %), Toshkent (9,6%), Farg'ona (9,0 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>O'z. Respublikasi</b>	<b>324,6</b>	<b>100,0</b>	<b>309,6</b>	<b>100,0</b>
Q. Respublikasi	15,3	4,7	14,9	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	28,1	8,7	26,6	8,6
Buxoro	18,0	5,6	17,2	5,5
Jizzax	14,2	4,4	13,5	4,4
Qashqadaryo	20,7	6,4	20,1	6,5
Navoiy	10,7	3,3	10,5	3,4
Namangan	21,9	6,8	20,9	6,8
Samarqand	24,5	7,5	23,1	7,5
Surxondaryo	16,0	4,9	15,2	4,9
Sirdaryo	10,8	3,3	10,0	3,2
Toshkent	33,6	10,4	29,9	9,6
Farg'ona	28,3	8,7	27,8	9,0
Xorazm	15,1	4,6	14,3	4,6
Toshkent sh.	67,3	20,7	65,6	21,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,2 % sanoatda, 8,8 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**




2018 yil yanvar-iyul holatiga 33926 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (7418 ta), Toshkent (3304 ta), Farg'ona (2814 ta) va Samarqand viloyatlarida (2760 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (930 ta), Navoiy (1316 ta) hamda Xorazm (1338 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (7045 ta), sanoatda (6561 ta), qurilishda (3871 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3630 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (750 ta), axborot va aloqada (754 ta) hamda tashish va saqlashda (1160 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>27663</b>	<b>33926</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3848	3630
Sanoat	7111	6561
Qurilish	2584	3871
Savdo	5387	7045
Tashish va saqlash	1168	1160
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2339	2279
Axborot va aloqa	673	754
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	530	750
Boshqa turlari	4023	7876

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 avgust holatiga 252,4 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 71,9 mingta, oilaviy korxonalar – 13,9 mingta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 159,4 mingta, va boshqalar 7,4 mingtani tashkil etadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6468 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 1195 taga yoki 22,6 % ga o`sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 3528 tasi qo`shma korxonalar, 2940 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 4140 ta (64,0 %), Toshkent viloyati 719 ta (11,1 %) va Samarqand viloyatlari 350 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 54 ta (0,8 %), Qashqadaryo viloyati 67 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 79 ta (1,2 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi 97 ta (1,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2678 ta (41,4 %), savdoda 1353 ta (20,9 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1104 ta (17,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 89 ta (1,4 %), axborot va aloqada 164 ta (2,5 %), tashish va saqlashda 190 ta (3,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 247 ta (3,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 272 ta (4,2 %) va qurilishda 371 ta (5,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.






## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 1151 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 736 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 144 ta, Turkiya Respublikasi – 147 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-137 ta, Qozog'iston Respublikasi – 91 ta, va Koreya Respublikasi – 78 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Rossiya Federatsiyasi



Turkiya Respublikasi



Qozog'iston Respublikasi



Xitoy Xalq Respublikasi



Koreya Respublikasi




Va boshqa davlatlar rezidentlari



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 364 ta, savdoda 307 ta, qurilishda 108 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 95 ta va boshqa faoliyat turlarida 277 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 250,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 8,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 56,5 mingtasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 24,3 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 22,0 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 21,8 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 250,5 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 67,6 mingtasi (27,0 %) – savdoda, 52,8 mingtasi (21,1 %) - sanoatda, 27,1 mingtasi (10,8 %) - qurilishda, 22,7 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 18,6 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,5 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 6,5 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 5,0 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 37,7 mingtasi (15,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 29,8 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (7022 ta), Toshkent (3053 ta), Samarqand (2482 ta) va Farg'ona viloyatlarida (2372 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (836 ta), Xorazm (1101 ta) hamda Navoiy (1122 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (7041 ta), sanoatda (6554 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3616 ta) va qurilishda (3867 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (738 ta), axborot va aloqada (750 ta) hamda tashish va saqlashda (1156 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 14514 tani tashkil etib, ulardan 13911 tasi yoki 95,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **26,0** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,1 % yoki 5162 tasi sanoat, 21,5 % yoki 2994 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,5 % yoki 2297 tasi savdo, 11,3 % yoki 1572 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 175 tasi qurilish, 1,1 % yoki 153 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 151 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 142 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,1 % yoki 1265 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi  
Statistik registrlarni yuritish va tizimli  
xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:  
N. Sheraliev  
(0371) 230-80-91,90

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan